

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA MAHALLIY ZIYOLILARNING MILLIY MAORIFNI YUKSALTIRISH VA MA'NAVIYAT SOHASIDAGI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVI MATERIALLARI ASOSIDA)

Hayitov Sh.A.

BuxDU Jahon tarixi kafedrası professori, t.f.d.

Rezyume: Ushbu maqolada O'zbekiston Milliy Arxivi ma'lumotlari asosida Turkistonda XX asr boshlarida mahalliy ziyolilarning milliy maorifni yuksaltirish va ma'naviyat sohasidagi faoliyatlari ilmiy asosda talqin etilgan.

Резюме: В данной статье на основе сведений Национального архива Узбекистана на научной основе осмысливается деятельность местной интеллигенции в области поднятия национального образования и духовности в Туркестане в начале XX века.

Resume: V dannoy state na osnoy svedenii Natsionalnogo arxiva Uzbekistana na nauchnoy osnoe osmyslyaetsya deyatelnost mestnoy intelligentsii v oblasti podnyatiya natsionalnogo obrazovaniya i dukhovnosti v Turkestane v nachale 20 veka.

Tayanch atamalar: Maorif, maktab, Ko'mak, Umid, gazeta, targ'ibot, yangi usul, panturkist, panislomist, madrasa, дума, mudarris, maktabdor, uyushma, o'quv qo'llanma, nashr, muallim, musulmon.

Ключевые слова: Просвещение, школа, Помощь, Надежда, газета, пропаганда, новый метод, пантюркистский, панисламистский, медресе, дума, мударрис, школьный учитель, объединение, учебное пособие, издание, учитель, мусульманин.

Key words: Education, school, Help, Hope, newspaper, propaganda, new method, pan-Turkist, pan-Islamist, madrasah, дума, mudarris, schoolmaster, association, study guide, publication, teacher, Muslim.

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida jadid munavvarlari va taraqqiyparvarlar aholining milliy ongini uyg'otish, xalqni savodini chiqarish, kitobxonlikka da'vat etish, o'lka va dunyo haqida kishilarimizda tasavvurlarni kengaytirish borasida ko'p kuch sarflaganlar. O'zbekiston Milliy Arxivi fondlarida ushbu xayrli ishlar haqida ma'lumot beruvchi bir qator hujjatlar saqlangan. Ayniqsa, Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) va uning maslakdoshlari va safdoshlari faoliyatidan arxiv manbalari orqali boy ma'lumotlar olish

mumkin. Munavvarqori Abdurashidxonov va uning “Ko‘mak” tashkiloti (1909-1923) haqida Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorligiga tegishli arxiv fondida ko‘pgina ma‘lumotlar saqlangan. SHunday ma‘lumotlardan birida: “Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentning Eski shahar qismiga qarashli Darxon mahallasida istiqomat qiladi. U 1904-yilda “Umid” (“Nadejda”) to‘garagi rahbari bo‘lgan va o‘z atrofiga millatchi yoshlarni to‘plagan. Mahalliy xalq bolalariga bilim berish maqsadida 11 ta yangi usul maktablari ochdi. Toshkentning Eski shahar qismida, aholi orasida ma‘rifatga chorlovchi targ‘ibotlar olib bordi. 1907-yilda Qo‘qonda bosilgan “Xurshid” gazetasiga muharrirlik qilgan” [1.] – deb qayd etilgan. Bu o‘rinda Munavvarqorining maorifchilik va jurnalistik faoliyati XX asr boshlarida avj olganligi, bu esa Rossiya imperiyasi hukumatini tashvishga solganligidan voqif bo‘lamiz. Rus ma‘murlari Munavvarqorining “Umid birodarligi” va “Ko‘mak” tashkilotlari orqali yoshlarni Turkiya (Usmoniylar saltanati) poytaxti Konstantinopol (Istanbul)ga o‘qish uchun yuborganligi, ular xorijdan “panislomist”, “panturkist” bo‘lib qaytayotganligi haqida tashvish bilan bir-birlariga maktublar, maxfiy bildirishlar yo‘llaganlar. Ular 1910-yillardayoq Munavvarqorini “xavfli kishilar” va “qora ro‘yxat”ga kiritganliklari ayon bo‘ladi. Yuqoridagi fikrni 1912-yil 22-mayda Munavvarqori Abdurashidxonov Sirdaryo harbiy gubernatoriga o‘z iltimosnomasini yozib, unda: “Toshkentning Eski shahar qismida o‘z nomi bilan kitob savdosi uyushmasi ochish, shu asosda kitob magazini tashkil etib, musulmon va rus-tuzem maktablari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma va darsliklar sotishga ruhsat berishni so‘ragan. Mazkur magazinda ta‘qiqlangan kitoblar sotilmasligi, magazin ochish uchun 1,5 rubl gerb solig‘ini to‘lashga tayyorligini bildirgan. Ushbu iltimosnoma hukumron doiralar o‘rtasida uzoq muhokama qilingan, Munavvarqorining qayta-qayta qilgan bu boradagi xatlari va murojaatlari javobsiz qoldirilgan. [2.] Nihoyat, 1912-yilning oxirida Toshkent Eski shahar (tuzemeslar qismi) qismi polismeystri o‘z xatida Munavvarqoriga harbiy gubernator kitob magazini ochishga ruhsat bermaganligini rasman ma‘lum qilgan. [3.]

Aynan, 1912-1915-yillarda mahalliy va yevropa millati vakillari rus ma‘muriyatidan kitob magazinlarini ochish uchun ko‘p bor murojaat qilganliklari bilan bog‘liq fuqarolarning xatlari va murojaatlari saqlangan. Jumladan, rus millati vakili Georgiy Karobkovga 1912-yil 25-martda Toshkentning yangi shahrida kitob savdosi magazini ochishga ruxsat berilgan. 1913-yil 12-aprelda Toshkent shahar Shayhontohur qismi

Zanginlik mahallasida yashovchi Muhammadxon Poshshoxo'jaevga "Maktab" kitob firmasi bazasida musulmon va rus kitoblari sotish, kanselariya buyumlari sotadigan magazin ochishga ruxsat berilgan. [4.] Ushbu magazinlar imperiya ma'murlarining qat'iy senzura nazorati ostida bo'lgan. Qattiq nazorat va kuzatuvga qaramay Turkiston o'lkasining turli shaharlarida faoliyat yuritgan kitob tarqatish uyushmalari va magazinlari yashirin ravishda aholiga milliy tuyg'u va milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladigan, xorijdan keltirilgan kitob hamda gazetalarni sotishgandi. 1910 yillarda Qo'qonning Eski shahar qismida joylashgan Ishoq Sharipov kitob magazini va uni Yangi Qo'qondagi kitob kioskasida Konstantinopol (Istanbul)dan haftalik gazeta "Istanbul yangiliklari" (turk tilida) yashirin holda kelib turgan. Shu sababli "Turkiston rayon qo'riqlash bo'limi" (Oxranka) idorasi ayg'oqchilaridan biri Ishoq Sharipov magazini va kioskasi ishonchsiz" – deb ma'lumot bergandi. [5.] SHuningdek, 1910-yilda bir guruh milliy ziyolilar Toshkent shahrida "Saodat" nomi bilan kitob nashriyoti bo'limini ochishgan. Unda bir qator progressiv fikrli yoshlar birlashib, ular o'z tashkilotini "Umid" deb nomlashgandi. "Umid" a'zolari nashriyotda milliy o'zlikni anglash targ'ibotida Turkiya va Turkiston shaharlarida bosilgan kitoblarni aholi orasida tarqatish kabi vazifalar bilan shug'ullanishgan. Toshkent shahrida "Umid"ning bir qator magazinlari, kitob saqlash ombori ham bo'lgan. Nashriyot filiallari Orenburg guberniyasiga qarashli Troisk shahrida va Sibirning Tyumen shahrida ham bo'lgan. [6.] 1910-1914-yillarda Turkistonda taraqqiyparvarlar maorifchilik, maktabchilik harakatida faol bo'lganligi arxiv hujjatlaridan o'rin olgan. Ayniqsa, "Ko'mak" jamiyati a'zolari bu yo'nalishda oldingi saflarda bo'lishgani ayon bo'ladi. "Ko'mak" jamiyatining a'zosi, asli Sibir guberniyasidan bo'lgan Mullo Hoshim 1909-yilda do'sti Mulla Olim Qosimov bilan yangi usul maktabi ochgan. Ular bir yil o'tib, Makka va Madina hajiga jo'nashgan, biroq Turkistonga qaytishmagan" – deb ma'lumot beriladi arxiv hujjatida. Ikkinchi bir manbada esa, "Ko'mak" jamiyati xazinachisi, yangi usul maktablaridan birining ta'sischisi Ahmadjon Bektemirov "Shuhrat" va "Osiyo" gazetalari ta'sischilaridan biri ham hisoblanadi" [7.] deb qayd etilgan.

Turkiston maxfiy xizmati (Oxranka) ma'lumoticha, Turkistondagi maktabchilik va maorifchilik harakati Usmoniylar saltanati (Turkiya)dagi "Ittihad va Taraqqiy" ("Birlik va Taraqqiyot") tashkiloti va tatar ma'rifatparvari I.G'aspirali (1851-1914) faoliyati bilan bog'liq. Rossiyadagi tatar muallimlari Turkistonda asosiy o'rin va mavqega ega bo'lishgan.

Tatar muallimi A.Maqsudov 1910-1911 yillarda Buxoro shahrida bo'lib, bu shaharda 16 ta no'g'ay (tatar) maktabi borligini qayd etgan. U Buxorodan Qo'qon shahriga o'tib, bu shaharda 60 nafar millatparvar yoshlar hatto, yagona maktab yoxud biror bir uyushmaga ham birlashmaganliklariga afsus bildirgan. [8.]

Toshkentdagi "Ko'mak" uyushmasi a'zosi To'lagan qori Kattaboev (SHayhontohur dahasi Darxon mahallasidan) Xasxon madrasasida 70-80 nafar ilmu-toliblarga tahsil bergan. Mudarris To'lagan qori hamkasbi Abduvohit Qoriev bilan Makka va Madinaga haj safarida bo'lib, vatanga qaytishda Istanbul (Turkiya) va Qohira (Misr) dan ilm-u toliblarga darslik va o'quv qo'llanmalar, gazeta va jurnallar olib kelishgan. [9.] Ushbu kitob va matbuot organlari madrasa talabalari milliy ongini o'sishiga xizmat qilgan. Turkistondagi milliy uyushmalarning a'zolari taraqqiyparvarlar Rossiya imperiyasidagi musulmon jamoalariga ham o'quv qo'llanma hamda milliy tildagi matbuot namunalari yetkazib berishda amaliy yordam ko'rsatganlar. 1910-yil 3-fevralda rus ayg'oqchiligi maxfiy ma'lumotida: "Toshkent maschitlaridan birining imomi Mahmud Mulla Axtamov va ilg'or fikrli savdogar Toji Isamuhamedovlar Sankt-Peterburgda musulmon jamoalari uchun o'quv qo'llanmalari, gazetalar bilan amaliy yordam berish uchun jo'nab ketganliklari Peterburg polisiya departamentiga xabar qilinadi. [10.]

Turkistonda tatarlar tomonidan maktablar, maorif muassasalari ochishga alohida e'tibor qaratilgani hujjatlardan namoyon bo'ladi. 1910 yil 14 oktyabrda Toshkentda musulmonlarning 50 kishidan ortiq vakillari qatnashgan maxsus yig'ilish bo'lgan. Majlisda musulmonlar orasida xalq ta'limi, musulmonlar dam olishi va bayramlari komissiyasi tuzilib, unga Ali Asqar Husaynovich Sutyushev rais qilib saylangan. Domulla Mavdut Axtamov musulmon bolalariga diniy, dunyoviy bilimlar berish va ta'limni o'z ona tillarida bo'lishi qarorini qabul qilinishiga erishgan. [11.]

Arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, rus maxfiy xizmati millatparvar va ma'rifatparvar shaxslar hatti-harakatidan imkon qadar xabardor bo'lish, ularga to'sqinlik qilish, zarur bo'lganda jazoga tortish choralarini ko'rishgan. O'nlab ma'rifatparvar shaxslarning "xavfli" harakati haqida xat va bildirishlarda ma'lumotlar keltiriladi. Birgina Munavvarqori Abdurashidxonov haqida: "Ushbu shaxs ayrim inqilobiy rus matbuoti bilan birga musulmon gazetolari va Konstantinopol (Istanbul) matbuoti bilan muntazam tanishib boradi... U maslakdoshi Samig' Qori bilan 4 ta gazeta chiqarib, ular orqali aholini milliy qo'zg'alishga da'vat

etdi. U o'z milliy g'oyalarini turli gazetalarda targ'ib qilmoqda. Munavvar Qorining bir qator maslakdoshlari Turkiyaga borib keldi, o'ziga ham bu mamlakatdan taklifnoma kelgan. SHayhontohur maschiti mullasi Abdul Vohit hibsga olindi. Bu mulla hibsga olingan maktabdor, "panislomist" va Munavvar Qori haqida salbiy fikr bildirmadi"[12.] – deb keltiriladi arxiv hujjatida.

Bu kabi salbiy ma'lumotlar 1907-yilda yashirin tipografiya ochib, o'quv qo'llanmalar bosgan qo'qonlik Og'a Rizoxon Qulixon hoji Ali Asqarxonov haqida, Qo'qon musulmon kutubxonasi egasi Og'a Muhammad to'g'risida 1910 yil 4 sentyabr va 1910-yil 9-sentyabrdagi bildirishnomalarda atroflicha bayon etilgan. [13.]

Rossiya imperiyasi Davlat dumasida Turkiston fraksiyasi (ja'mi: 13 ta deputat, 6 ta mahalliy millat vakillaridan, 7 ta yevropa millati vakillaridan saylangan – Sh.H.) o'lka halqlari madaniy-ma'rifiy huquqlari uchun qat'iy kurash olib bormagan bo'lsada, ularning ayrim vakillari Turkiston shaharlarida bo'lib haqiqiy ahvoldan xabardor bo'lishgan. Biroq III, IV-davlat dumalarida Turkiston fraksiyasi a'zolarining takliflari deyarli inobatga olinmagan. 1910-yil sentyabrda Davlat dumasi a'zosi, tatar millati vakili Sadri Nizomovich Maqsutov Orenburg, Ashxobod, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va Toshkent shaharlarida bo'ldi. U o'lka aholisining iqtisodiy holati, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik holatidan xabardor bo'ldi. S.Maqsudov mahalliy aholi tilida so'zlashib "choy ustida suhbat", ro'zaramazon "iftorlari" da qatnashib, bozorlarda bo'lib mavjud vaziyatdan to'la xabardor bo'ldi. [14.] S.N. Maqsutov turkistonliklarda milliy ong va milliy o'zlikni anglash tuyg'ulari o'sib borayotganligini shaxsan e'tirof etdi.

Xullas,O'zbekiston Milliy Arxivining bir qator fondarida XX asr boshlarida Turkistonda maktabchilik va maorifchilik harakati, ma'naviy yuksalishda muhim bosqich yuz berganligini isbotlashga xizmat qiladigan boy manbaviy ma'lumotlar mavjud.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-17-fond, 1-ro'yxat, 16998-yig'ma jild, 149-varaq.
2. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-17-fond, 1-ro'yxat, 16698-yig'ma jild, 150,151,152,153,154,155,156-varaqlar.
3. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-17-fond, 1-ro'yxat, 16698-yig'ma jild, 158-varaq.
4. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-17-fond, 1-ro'yxat, 16698-yig'ma jild, 54,70-varaqlar.
5. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 36-varaq.

6. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 942-yig'ma jild, 41-varaq, 41-varaqning orqa tomoni.
7. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 4,5-varaqlar.
8. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 11,39-varaqlar.
9. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 13,14-varaqlar.
10. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 942-yig'ma jild, 5-varaq.
11. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 46,47,48-varaqlar.
12. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 20,21,22,23-varaqlar.
13. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 15,16-varaqlar.
14. O'zbekiston Milliy Arxivi, I-461-fond, 1-ro'yxat, 948-yig'ma jild, 35-varaq.